

SCIENCE PROBLEMS.UZ

ISSN: 2181-1342 (ONLINE)

№ S/5 (3) - 2023

ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ
ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ

АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ
СОЦИАЛЬНО-ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES
AND SOCIAL SCIENCES



ЭЛЕКТРОН ЖУРНАЛ

ЭЛЕКТРОННЫЙ ЖУРНАЛ
ELECTRONIC JOURNAL

SCIENCEPROBLEMS.UZ

ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ

№ 5/5 (3)-2023

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

ТОШКЕНТ-2023

БОШ МУҲАРРИР:

Исанова Феруза Тулқиновна

ТАҲРИР ҲАЙЪАТИ:

07.00.00-ТАРИХ ФАНЛАРИ:

Юлдашев Анвар Эргашевич – тарих фанлари доктори, сиёсий фанлар номзоди, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Мавланов Уктам Махмасабирович – тарих фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Хазраткулов Аброр – тарих фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети.

08.00.00-ИҚТИСОДИЁТ ФАНЛАРИ:

Карлибаева Рая Хожабаевна – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Худойқулов Садирдин Каримович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Азизов Шерзод Ўктамович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси Божхона институти;

Арабов Нурали Уралович – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Холов Актам Хатамович – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Шадиева Дилдора Хамидовна – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент в.б, Тошкент молия институти;

Шакаров Қулмат Аширович – иқтисодиёт фанлари номзоди, доцент, Тошкент ахборот технологиялари университети

09.00.00-ФАЛСАФА ФАНЛАРИ:

Ҳакимов Назар Ҳакимович – фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Яхшиликков Жўрабой – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Ғайбуллаев Отабек Мухаммадиевич – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат чет тиллар институти;

Ҳошимхонов Мўмин – фалсафа фанлари доктори, доцент, Жиззах педагогика институти;

Носирходжаева Гулнора Абдукаҳхаровна – фалсафа фанлари номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети.

10.00.00-ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:

Ахмедов Ойбек Сапорбаевич – филология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Кўчимов Шухрат Норқизилович – филология фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Салахутдинова Мушарраф Исамутдиновна – филология фанлари номзоди, доцент, Самарқанд давлат университети;

Кучкаров Раҳман Урманович – филология фанлари номзоди, доцент в/б, Тошкент давлат юридик университети;

Юнусов Мансур Абдуллаевич – филология фанлари номзоди, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Саидов Улугбек Арипович – филология фанлари номзоди, доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси.

12.00.00-ЮРИДИК ФАНЛАРИ:

Ахмедшаева Мавлюда Ахатовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Мухитдинова Фирюза Абдурашидовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Эсанова Замира Нормуратовна – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикасида хизмат кўрсатган юрист, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳамроқулов Баҳодир Мамашарифович – юридик фанлар доктори, профессор в.б., Жаҳон иқтисодиёти ва дипломатия университети;

Зулфиқоров Шерзод Хуррамович – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Жамоат ҳавфсизлиги университети;

Хайитов Хушвақт Сапарбаевич – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Асадов Шавкат Ғайбуллаевич – юридик фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси

Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Сайдуллаев Шахзод Алиханович – юридик фанлар номзоди, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Амиров Зафар Актамович – юридик фанлар бўйича фалсафа доктори (PhD), Ўзбекистон Республикаси Судьялар олий кенгаши ҳузуридаги Судьялар олий мактаби

13.00.00-ПЕДАГОГИКА ФАНЛАРИ:

Ҳашимова Дильдархон Уринбоевна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Ибрагимова Гулнора Хавазматовна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Закирова Феруза Махмудовна – педагогика фанлари доктори, Тошкент ахборот технологиялари университети ҳузуридаги педагогик кадрларни қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш тармоқ маркази;

Тайланова Шоҳида Зайниевна – педагогика фанлари доктори, доцент.

19.00.00-ПСИХОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:

Каримова Васида Маманосировна – психология фанлари доктори, профессор, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Ҳайитов Ойбек Эшбоевич – Жисмоний тарбия ва спорт бўйича мутахассисларни қайта тайёрлаш

ва малакасини ошириш институти, психология фанлари доктори, профессор

Умарова Навбаҳор Шокировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети, Амалий психология кафедраси мудири;

Атабаева Наргис Батировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Қодиров Обид Сафарович – психология фанлари доктори (PhD), Самарканд вилоят ИИБ Тиббиёт бўлими психологик хизмат бошлиғи.

22.00.00-СОЦИОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:

Латипова Нодира Мухтаржановна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири;

Сеитов Азамат Пўлатович – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети;

Содиқова Шоҳида Мархабоевна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон халқаро ислом академияси

23.00.00-СИЁСИЙ ФАНЛАР

Назаров Насриддин Атакулович – сиёсий фанлар доктори, фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент архитектура қурилиш институти;

Бўтаев Усмонжон Хайруллаевич – сиёсий фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири.

ОАК Рўйхати

Мазкур журнал Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги Олий аттестация комиссияси Раёсатининг 2022 йил 30 ноябрдаги 327/5-сон қарори билан тарих, иқтисодиёт, фалсафа, филология, юридик ва педагогика фанлари бўйича илмий даражалар бўйича диссертациялар асосий натижаларини чоп этиш тавсия этилган илмий нашрлар рўйхати (Рўйхатга) киритилган.

Crossref DOI:

Таҳририят Crossref DOI нинг расмий аъзоси ҳисобланади ва 10.47.390 DOI префиксига эга. Ҳар бир нашр ва илмий мақолага индивидуал Crossref DOI рақами берилади.

Google Scholar

Журнал Google Scholar (Академия) да индексацияланади.

Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари электрон журнали 1368-сонли гувоҳнома билан давлат рўйхатига олинган.
Муассис: “SCIENCEPROBLEMS TEAM” масъулияти чекланган жамият.

Таҳририят манзили:
Тошкент шаҳри, Яккасарой тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-уй. Электрон манзил: scienceproblems.uz@gmail.com
Телеграм канал: https://t.me/scienceproblems_uz

МУНДАРИЖА

07.00.00 – ТАРИХ ФАНЛАРИ

- Кайпова Малика Дауытбай қизи*
ҚОРАҚАЛПОҒИСТОНДАГИ ТАРИХИЙ МАДАНИЙ ОБЪЕКТЛАР ВА УЛАРНИНГ ҲУДУДДА
ТУРИЗМНИ РИВОЖЛАНТИРИШДАГИ ЎРНИ9-13
- Фарманова Гульнара Комилевна*
АРХЕОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ Г.А.ПУГАЧЕНКОВОЙ НА ТЕРРИТОРИИ
САМАРКАНДСКОГО СОГДА 14-19
- Aminov Xurmatbek Вахрат о'g'li*
HUNARMANDCHILIK RIVOJI UCHUN YANGI IMKONIYATLAR 20-25
- Мустафоев Жонибек Аралбоевич*
“ПАХТА ИШИ”НИНГ ИЖТИМОЙ-ИҚТИСОДИЙ ҲАЁТГА ТАЪСИРИ ВА УНИНГ ФОЖИАЛИ
ОҚИБАТЛАРИ (НАВОЙИ ВИЛОЯТИ МИСОЛИДА) 26-31
- Yunusxo'jayev Habibulla Zafar o'g'li*
O'ZBEKISTON TARIXIY TARAQQIYOTNING ZAMONAVIY BOSQICHIDA IJTIMOY DAVLATNI
SHAKLLANTIRISHNING KONSTITUTSIYAVIY ISTIQBOLLARI32-36
- Маҳмудон Эркин Асқаралиевич*
АРАБ ХАЛИФАЛИГИ ИСТИЛОСИ ДАВРИДА ФАРҒОНАДАГИ СИЁСИЙ ЖАРАЁНЛАР37-45
- Назаров Комил Шамсуддинович*
ИЧКИ ИШЛАР ОРГАНЛАРИ ТИЗИМИДА КАДРЛАР ТАЙЁРЛАШ МАСАЛАЛАРИ46-51
- Матажонов Раҳимжон Акратович*
O'ZBEKISTONDA MUSTAQILLIK YILLARIDA TARIXCHI KADRLAR TAYYORLASH SOHASI
HUQUQIY ASOSLARINING YARATILISHI52-58
- ### 08.00.00 – ИҚТИСОДИЁТ ФАНЛАРИ
- Остоноқулов Азамат Абдукаримович, Султонов Омон Жума ўғли*
ДАВЛАТ ОТМЛАРИДА БЮДЖЕТДАН ТАШҚАРИ МАБЛАҒЛАР ҲАРАКАТИ ТЎҒРИСИДАГИ
ҲИСОБОТЛАРНИНГ АХБОРОТ ИМКОНИАТЛАРИНИ ОШИРИШ ЙЎЛЛАРИ 59-69
- Narmamatov Ixtiyor Baxtiyorovich*
DEVELOPMENT ADVANTAGES OF CASHLESS PAYMENTS IN THE PAYMENT SYSTEM OF
UZBEKISTAN 70-75
- Хамраев Джамшид Панжиевич*
ТЕМИР ЙЎЛ ТРАНСПОРТИДА МАҲАЛЛИЙЛАШТИРИШНИ МОЛИЯЛАШТИРИШНИНГ
ИҚТИСОДИЙ МОҲИЯТИ, РИВОЖЛАНИШ БОСҚИЧЛАРИ ВА ЗАРУРЛИГИ 76-81
- Кулибоев Азамат Шоназарович*
ДАВЛАТ ТИББИЁТ ТАШКИЛОТЛАРИДА ҲИСОБ СИЁСАТИНИ ШАКЛЛАНТИРИШ
УСЛУБИЁТИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ 82-91
- Axmedova Nazokat Zikirillo qizi*
KORXONA MARKETING STRATEGIYASIDA RAQAMLI STRATEGIYADAN FOYDALANISH
USULLARI VA AFZALLIKLARI 92-97

<i>Саатмуротов Шохрух</i> МИНТАҚАДА САНОАТ ИШЛАБ ЧИҚАРИШНИНГ БАҲОЛАШ ОМИЛЛАРИ	98-103
<i>Шакирова Фароғат Болтаевна</i> АҚШ ИҚТИСОДИЁТИНИНГ ИННОВАЦИОН ТИЗИМИ ОМИЛЛАРИ, ТАРКИБИ ВА РИВОЖЛАНИШ НАЗАРИЯСИ	104-113
<i>Кадиров Лутфулло Халимович</i> ТИЖОРАТ БАНКЛАРИ МОЛИЯВИЙ БОШҚАРУВ ТИЗИМИ САМАРАДОРЛИГИНИ ОШИРИШ МУАММОЛАРИ	114-121
<i>Ibragimova Zarema Zokirovna</i> DUNYONING IQTISODIY RIVOJLANGAN MAMLAKATLARINING BOSHQARUV TASHLILINI TASHKIL ETISH VA ULARNI ICHKI IQTISODIYOTGA TATBIQ ETISH TAJRIBASI	122-129
<i>Қодиров Азизжон Анварович</i> «COVID-19» ИНҚИРОЗИНИНГ ЖАҲОН ЭКОТУРИЗМ ИНДУСТРИЯСИ РИВОЖЛАНИШИГА ТАЪСИРИ	130-137

09.00.00 – ФАЛСАФА ФАНЛАРИ

<i>Sharipov Dilshod Baxshilloyevich</i> JON LOKKNING TABIIY HOLAT VA TINCHLIKKA OID QARASHLARI	138-145
<i>Rahmatova Xolidaxon Xolikovna</i> ХОҲА АНРОР ВАЛИЙНИНГ ТИНЧЛИК, ОСОЙИШТАЛИК ВА НАМЎНАТЛИККА ДОИР Г'ОЙАЛАРИ – ВАРҚАРОР ТАРАҚҚИЙОТ ОМИЛИ СИФАТИДА	146-151
<i>Орзиев Иқболжон</i> АХБОРОТЛАШГАН ЖАМИЯТДА СЕКУЛЯРИЗМ ОМИЛИНИНГ ИЖТИМОЙ АҲАМИЯТИ	152-157
<i>Turabova Sevara Kattaqulovna</i> ILMIY MUAMMOLARNI HAL ETISHDA VAHS-MUNOZARALARNING TUTGAN O'RNI.....	158-165

10.00.00 – ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ

<i>Israil Mukaddas Irgashevna</i> BOSMA MEDIA TILINING SOTSIOLINGVISTIK ASPEKTDI O'RGANISH USULLARI	166-172
<i>Nishonova Xurshida Yusufjanovna</i> A'ZAM O'KTAM SHE'RIYATIDA MILLIY RUHNING IFODALANISHIDA E'TIQODIY QARASHLAR	173-178
<i>Маматкулова Камола Шавкат кизи</i> ИСТОРИЯ ВОЗНИКНОВЕНИЯ ПОНЯТИЯ ПРЕЦЕДЕНТНОСТИ В ЛИНГВИСТИКЕ И ЕГО РОЛЬ В ЛИНГВОКУЛЬТУРОЛОГИИ	179-184
<i>Hamroyeva Dilfuza Jamolovna</i> O'ZBEK XALQ QO'SHIQLARIDA YUZ SOMATIZMINING BADIY TALQINI	185-189
<i>Mahmudova Xushnoza Ravshanbekovna</i> OMMAVIY AXBOROT VOSITALARIDA MOLIVAVIY SAVODXONLIKNI OSHIRISH	

MASALALARI	190-195
<i>Ismonova Yorqinoy Abdumutalib qizi</i> ROMANDA ROVIY BOLA OBRAZI.....	196-200
<i>Mirzoyev Masudjon Kimsanovich, Niholchonova Navbahor</i> FARZONA XO'JANDIY SHE'RLARIDA MIFOLOGIK PERSONAJLAR BADIY IFODASINING XUSUSIYATLARI	201-206
<i>Kholiyorov Bunyod</i> THE CONDITION OF DEVELOPMENT OF LEXICAL COMPETENCE USING AUTHENTIC MATERIALS IN TEACHING ENGLISH IN NON-PHILOLOGICAL EDUCATIONAL INSTITUTIONS	207-213
<i>Hazratqulov Mutallib Rashidovich, Gulxanova Fotima, Qarshiboyeva Muborak</i> NUTQNI IDROK ETISH QONUNIYATLARI	214-219

12.00.00 – ЮРИДИК ФАНЛАР

<i>Файзиев Шухрат Хасанович</i> ПОНЯТИЕ И ОСОБЕННОСТИ ЭКОЛОГИЧЕСКОЙ ПОЛИТИКИ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН В КОНТЕКСТЕ УСТОЙЧИВОГО РАЗВИТИЯ	220-225
<i>Nishonov Abdulloh Ubaydulloh o'g'li</i> ATOM ENERGIYASINING XAVFSIZLIGINI TA'MINLASHNING XALQARO-HUQUQIY ASOSLARI	226-233
<i>Safoeva Sadoqat Musoeva</i> IJTIMOIY TARMOQLARDA FUQAROLIK-HUQUQIY MUNOSABATLARNI HUQUQIY TARTIBGA SOLISH ISTIQBOLLARI	234-246
<i>Бокиев Жаҳонгир Нурматжон ўғли</i> АЛОҲИДА ТАЪЛИМ ЭҲТИЁЖЛАРИ БЎЛГАН ШАХСЛАРНИНГ ОЛИЙ ТАЪЛИМ ОЛИШ ҲУҚУҚИНИ ТАЪМИНЛАШНИНГ ТАШКИЛИЙ-ҲУҚУҚИЙ МАСАЛАЛАРИ	247-253
<i>Турсунова Маликахон Улуғбековна</i> ЗАМОНАВИЙ ДАВЛАТДА ДИПЛОМАТИК ФАОЛИЯТ ШАКЛЛАРИ: ИСЛОХОТЛАР ВА ҚОНУНЧИЛИК ТАРТИБОТИГА БЎЛГАН ЭҲТИЁЖ	254-258

13.00.00 – ПЕДАГОГИКА ФАНЛАРИ

<i>Atamatov Abduxalil Salomovich</i> OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA MUSTAQIL SOATLARNI O'QITILISHINING KOMPETENSIYAVIY O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI	259-265
<i>Omarova Gavhar Sadikovna</i> HUQUQ FANINI O'QITISHDA TA'LIMNI TABAQALASHTIRISHNING PEDOGOGIK-PSIXOLOGIK JIHATLARI: DIDAKTIK O'YINLAR MISOLIDA	266-271
<i>Baratov Jo'raqo'zi Shukurjon o'g'li</i> BO'LAJAK PEDAGOGLARNING KASBIY FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISHDA NOSTANDART TOPSHIRIQLARNING ROLI VA AHAMIYATI	272-277

<i>Kuchkarova Arofathon</i> THE IMPORTANCE OF GEOGEBRA IN ENHANCING STUDENTS' LEARNING OF MATHEMATICS AT SCHOOLS	278-283
<i>Tojiyeva Xolida Baxtiyorovna</i> UMUMTA'LIM MAKTABLARI ADABIYOT DARSLARIDA ASAR BADIYYATINI O'QITISH TARIXI	284-288
<i>Masharipov Ravqat Madraximovich</i> KURASH BILAN SHUG'ULLANUVCHI TALABA SPORTCHILARDA TAYYORGARLIK BOSQICHLARINI KUN VA HAFTALIK MIKROTSIKLLARDA MASHG'ULOT YUKLAMALARINI OPTIMAL ME'YORLASH	289-295
<i>Niyozmatov Anvar Bahodirovich</i> XORAZM XALQ O'YINLARI	296-303
<i>Qodirov Xasanboy Oribjonovich</i> OLIJ TA'LIM MUASSASASI TALABALARIDA LIDERLIK SIFATLARINI SHAKLLANTIRISH BOSQICHLARI	304-309
<i>Kejaboev Abdusalim Erkaboevich</i> PEDAGOGIK MENEJMENT VA ZAMONAVIJ RAHBAR KOMPETENTLIGI	310-315
<i>Axmadjonova Farangiz Axrorjon qizi</i> OLIJ TA'LIM MUASSASALARIDA MASOFAVIY TA'LIM MAZMUNI VA TA'LIM JARAYONINI TAKOMILLASHTIRISHNING DIDAKTIK - USLUBIJ TA'MINOTI	316-322

13.00.00- Педагогика фанлари

Ахмаджонова Фарангиз Ахроржон қизи
O'zDJTU Ingliz tili nazariy aspektlari kafedrası o'qituvchisi
Email: axrarovna@bk.ru

**OLIV TA'LIM MUASSASALARIDA MASOFAYIV TA'LIM MAZMUNI VA TA'LIM JARAYONINI
TAKOMILLASHTIRISHNING DIDAKTIK – USLUBIY TA'MINOTI**

Annotatsiya. O'qish va o'rganish bu insonning mukammal bo'lishga intilishining boshlanishidir. Shunisi ma'lumki, ilm va bilim qanchalik rivojlangan bo'lsa, ilm olishni o'rganish va metodlarini o'zgartirish uchun ko'proq ehtiyoj talab etiladi. Bugungi kunda masofaviy ta'lim eng muqobil yo'nalishlardan biri bo'lib, uni yuzma-yuz yoki an'anaviy ta'lim bilan almashtirish mumkin va bu oliy ta'limning rivojlanishidagi ustuvor yunalishlaridan biridir. Masofaviy ta'limni buyuk olim Xolmberg, uzluksiz ta'lim deb ta'riflaydi. Darhaqiqat, bunda uqituvchi va talaba makon va zamonga nisbatan bir-biridan ajralib turadi va bu uning asosiy xususiyatlaridan biri hisoblanadi. Ushbu maqolada ham masofaviy uqitishning ahamiyati afxalliklari bilan bir qatorda uning pedagogik, didaktik uslubiy ta'minoti haqida to'xtalinadi.

Kalit so'zlar: didaktik – uslubiy yondashuv, tarqatilgan ta'lim, masofaviy ta'lim, gibrit o'qitish, didaktik ta'lim, metodika, pedagogik tadqiqotlar va ta'minot

Akhmadjonova Farangiz Akhrorjon qizi
Teacher of the department of
“Theoretical aspects of English language” UzSWLU

**DIDACTIC – METHODOLOGICAL SUPPORT FOR IMPROVING THE CONTENT AND
EDUCATIONAL PROCESS OF DISTANCE LEARNING IN HIGHER EDUCATION**

Abstract. Studying and learning is the beginning of a person's pursuit of perfection. It is well known that the more advanced science and knowledge are, the greater need to learn and change the methods of acquiring new knowledge. Today, distance education is one of the most alternative direction, which can be replaced by face-to-face or traditional way of teaching. Holmberg, a great scientist, describes distance education as continuous education. In fact, the teacher and student are can be separated from each other at any time and space, and this is one of its main features. In this article, as well as the importance of distance learning, its pedagogical and didactic methodological support are gong to be discussed.

Key words: didactic – methodological approach, distributed education, distance education and learning, didactic learning, methodology, pedagogical research and support

Ахмаджонова Фарангиз Ахроржон кизи
Преподаватель кафедры “теоретические аспекты
английского языка” УзГУМЯ

**СОДЕРЖАНИЕ ДИСТАНЦИОННОГО ОБРАЗОВАНИЯ В ВЫСШИХ УЧЕБНЫХ
ЗАВЕДЕНИЯХ И ДИДАКТИКО – МЕТОДИЧЕСКОЕ ОБЕСПЕЧЕНИЕ
СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ ОБРАЗОВАТЕЛЬНОГО ПРОЦЕССА**

Аннотация. чтение и обучение-это начало человеческого стремления к совершенству. Известно, что чем более развиты наука и знания, тем больше потребность в обучении и изменении методов получения знаний. Сегодня дистанционное обучение является одним из наиболее альтернативных направлений, которое может быть заменено очным или традиционным обучением, и является одним из приоритетов высшего образования в его развитии. Дистанционное обучение великий ученый Холмберг описывает как непрерывное образование. Действительно, в этом учитель и ученик расходятся по отношению к пространству и времени, и это считается одной из его основных характеристик. В этой статье также рассматривается важность дистанционного обучения, а также его педагогическое, дидактическое методическое обеспечение.

Ключевые слова: дидактико-методический подход, распределенное обучение, дистанционное обучение, гибридное обучение, дидактическое обучение, методология, педагогические исследования и обеспечение

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPI1342V3SI5Y2023N46>

Bugungi kunda jahon ta'lim standartlariga mos ravishda dars tashkil etish asosini yangi pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat bilan mashg'ulotlarni tashkil etish tushuniladi. Shu boisdan ta'lim tizimida bunday masalalarga alohida e'tibor berilmoqda. Pedagogika fani shaxsni rivojlantirishning ikki muhim jihatini o'z ichiga oladi: o'qitish va tarbiyalash. Shu bois asosiy e'tibor didaktika (ta'lim nazariyasi) va tarbiya nazariyasiga qaratiladi hamda ular fanning muhim tarkibiy qismlari hisoblanadi. Didaktika so'ziga quyidagicha ta'rif beriladi, ya'ni yunoncha "didaktikos – o'rgatuvchi va didasko – o'rganuvchi" ma'nolarini anglatadi. Bu so'z 1613 yili Germaniyada nemis pedagogi Wolfgang Ratke (1571-1635) tomonidanfanga kiritilgan bo'lib bunda, ta'limning nazariy jihatlarini, ta'lim jarayoning mohiyati, tamoyillari, qonuniyatlari, o'qituvchi va o'quvchi faoliyatlari, ta'limning maqsadi, mazmuni, shakl, metod, vositalari natijasi, ta'lim jarayonini takomillashtirish yo'llari va boshqa muammolarni tatbiq etadi.

Bundan tashqari, shunga o'xshash usul va qo'llanmalarni buyuk chex pedagogi Yan Amos Komenskiy (1592-1670) "Buyuk Didaktika" nomli mashhur asarida tilga oladi. Lekin Komenskiy nazarida didaktika – bu faqat ta'limgina emas, balki tarbiyalash ham deb ta'kidlaydi. Mazkur asarda olim ta'lim nazariyasining muhim masalalari hisoblangan ta'limning mazmuni, ko'rgazmaliligi, ketma- ketligi tamoyillari, sinf va dars sistemalari borasida bahs yuritadi. Zamonaviy pedagoglarning o'quv mashg'ulotlari uchun didaktik vositalarni va metodlarni tayyorlashda quyidagi zamonaviy talablarga muvofiq ish ko'rishlari kutilgan ta'limiy natijani qo'lga kiritilishi uchun zarur sharoitni vujudga keltiradi:

- Uning aniq maqsadga yo'naltirilgan bo'lishi;
- O'quvchilarning ehtiyoj va qiziqishlarini o'z ichiga olishi;
- O'quv mavzularining ishonchliligi;
- Faollashtirish imkoniyatiga egaligi;
- O'quvchilarni juftlikda, kichik va katta guruhlarda faol ishlashlariga sharoit yaratish;
- O'quvchilarda mustaqil, ijodiy, tanqidiy va kreativ fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish;
- Mavzu va darsliklarning zamonaviyligiga ahamiyatlilik;
- Darsning estetik jihatdan sifatli bo'lishi;
- Noaniq tushuncha va iboralardan holi bo'lishi;
- Aniq natijani kafolatlay olishi;
- Turli vaziyatlarda qo'llay olish imkoniyati mavjudligi;
- Mavjud ,bilim,ko'nikma, malakani mustahkamlashga xizmat qilishi;

- Didaktik materiallarni tayyorlashda o'quv axborotlarining ishonchli ekanligiga e'tibor qaratish;
- Dars jarayonida sinfda kreativ va bahs muhitini yaratish;
- O'quv dasturi va o'quv manbalarini yaratishga nisbatan kreativ yondashuvlar va o'quvchilarning intellektual rivojlanishiga oid savol topshiriqlarning mavjudligi;
- Didaktik o'quv darsliklarini samarali shakllantirishda g'oyaviylik, ilmiylik, vizuallik, tizimlilik, o'quv axborotlarining izchil bayon etilishi, o'quv axborotlari o'rtasidagi o'zaro uzviy bog'liqlikni inobatga olinishi;
- O'quv — didaktik materiallar (yoki o'quv vositalari) deganda, o'qitilishi va o'rganilishi lozim bo'lgan bilimlarni beruvchi har qanday axborot tashuvchilarni tushunamiz. Ular axborot olish va axborotni qayta ishlash uchun ishlatiladi.

Ta'lim – tarbiya sifatini oshirishda didaktik tamoyillarga yondashish, uch bosqichlik tajriba – sinov ishlari orqali amalga oshiriladi:

1. Ta'limga tayyorgarlik;
2. Tashkil etish jarayonlari;
3. Yakuniy bosqich;

E'tibor qaratish joiz bo'lgan yana bir muhim omil quyidagilardan iborat:

1. Pedagogik kuzatuvni tashkil etish;
2. Muammoning nazariy va amaliy jihatdan bo'lajak o'qituvchilar bilim darajasini aniqlash maqsadida suhbatlar tashkil qilish;
3. Turli xildagi so'rovnomalarni o'tkazish;
4. Ushbu so'rovnomalarga asoslangan holda tadqiqotni yana ham kuchaytirish
5. Ta'lim – tarbiya sifatini oshirishda didaktik tamoyillardan foydalanish metod va vositalarini aniqlash;

Bu kabi tadqiqot ustida izlanish va o'qituvchilarning didaktik ustuvorliklarini bilish va ularga amal qilgan holda bevosita qo'llash va bilvosita kuzatish, suhbat, pedagogik testlarni tashkil etish kabi metodlardan ham keng foydalaniladi.

Oliy ta'lim mutaxassis professorlari bo'lajak pedagoglarning faoliyati, ularning ta'lim olishida qanchalik maqsadga muvofiq shakllanishiga katta imkoniyatlar yaratib berishadi. Yanada aniqroq yondashiladigan bo'lsa, butun o'quv jarayoni rejalashtiriladi, hamda ushbu jarayonda ta'lim oluvchilar bilan birgalikdagi faoliyatni tashkillashtirishadi. Bundan tashqari, Oliy ta'limda professorlarning yana bir vazifasi talabalarga barcha qiyinchiliklarni yengib o'tishda yordam berish, ularning bilimlarini va butun ta'lim jarayonini tashxis qilish orqali ularga qo'llab – quvvatlovchi maslahatlar va yondashuvlar taklif qilishdan iboratdir. O'z navbatida ta'lim oluvchilarning faoliyati o'quv jarayonida o'rganishga, bilim, ko'nikma hamda malakalarni egallashga, o'zini jamiyatga foydali faoliyatga tayyorlashga yo'naltiradi. Ta'lim olish jarayonida bilim egalarining faoliyati ko'p qirrali yo'nalgan harakatni ifodalaydi va bu harakat bilishga doir vazifalarni hal qilishda ularga katta yordam beradi. Didaktikaning asosiy tushunchalariga ta'lim, ta'lim jarayoni, ta'lim tamoyillari, ta'lim metodlari, ta'lim shakllari ta'lim vositalari, bilim, ko'nikma, malaka, o'qitish, o'qish, o'qish va kabilar kiradi. Dastavval ta'lim – bu tahsil oluvchiga maxsus tayyorlangan mutaxassislar yordamida bilim berish va ulardagi ko'nikma hamda malakalarni rivojlantirish jarayoni bo'lib, shaxsning inson sifatida hayotga va mehnatga ongli ravishda tayyorlash vositasi. Qayerda bo'lmasin ta'limning asosiy va muhim

vazifasi bo'lib ta'lim oluvchini o'qitishdan iboratdir. Bunda o'qitish bilan bir qatorda o'qitish ya'ni oila, ishlab chiqarish, soha mutaxassisiga aylantirishlar ham kiradi. Bir so'z bilan aytganda mustaqil hayotga tayyorlash nazarda tutiladi.

Jadal ravishda rivojlanib borayotgan davrda elektron atamasi ancha mashhur bo'lib ta'lim tizimini ham chetlab o'tmagan. Hozirda elektron ta'lim atamasi har qanday raqamli texnologiyalar orqali dars jarayonlarini tashkil etishga va bunga ko'maklashish uchun ko'rsatmalarga nisbatan ishlatiladi. Bunda asosiy rolni internet hamda kompyuter va shunga o'xshash texnologiyalar o'ynaydi. Shu bilan bir qatorda elektron ta'lim muhitini turli xil usulda tashkil qilish ham mumkin, xoh boshqa manzildan bo'lsin xoh yuzma – yuz. Bugungi yoshlar hattoki onlayn tarzda dunyoning istalgan burchagida istalgan yo'nalishlarida tahsil olishlari va o'z bilim va ko'nikmalarini oshirishlari mumkin. Umuman olganda savol tug'ilishi tabiiy, "Nima uchun masofadan o'qitish kerak?". Masofaviy ta'limning asosiy maqsadi joy va vaqt to'siqlarini yengib o'tishdir. Misol uchun, uzoq hamda borib tahsil olish imkoniyatiga ega bo'lmagan yoshlar va xuddi sharoitdagi kasb egalari ham mavjud. Aksincha, chet mamlakatlarida o'qishni orzu qilgan va borib tahsil olishga sharoiti bo'lmagan yigit – qizlar ham yo'q emas. Shularni barchasini jamlagan holda aytish mumkinki, masofaviy o'qitish o'quvchilar oila, ish va ta'limni muvozanatlashtirgan holatda o'zlariga qulay vaqtda tahsil olish imkoniyatini beradi. Zamonaviy qurilmalar orqali masofaviy ta'limning afzalliklari yana ham oshadi. Bunga misol qilib turli xil online video, audio, interfaol o'yinlar, ochiq suhbat va diskussiyalarni keltirish mumkin. Bu kabi darslarni yana bir muhim afzalligi shundaki dars jarayonini saqlash imkoniyatiga egaligidir. Darsga ulgurmay qolgan talabalar qoldirib yuborilgan mavzularni keyinroq ham belgilangan muhlatgacha o'zlashtirish va qayta ko'rish imkoniyatiga ega bo'ladilar va darsdan qolish, tushunmaslik va shu kabi muammolarga duch kelmaydilar. Onlayn darslar davomida ma'ruzachilarga ko'proq o'qitish – tushuntirish usullarini tanlashadi va fikr muhokamasi kabi qiziqarli usullar yordamida dars jarayonlarini olib borish taklif qilinadi. Misol tariqasida quyidagilarni keltirish mumkin:

- Onlayn o'yin musobaqalari;
- Dars shakli va dizayni yorqin hamda o'ziga jalb qiluvchiligi;
- Oldindan tayyorlangan ma'ruza matnlari va mashg'ulotlar;
- Ovozli power point;
- Web konferensiyalar;
- Masofaviy ta'lim tizimida o'quv kursining umumiy ko'rinishi o'z ichiga
- Nazorat materiallari;
- Nazariy bilimlarni tahlil qilish uchun topshiriqlar va xatoliklardan holi bo'lgan

misollar;

- Virtual laboratoriya topshiriqlari;
- Ma'lumotlar bazasi va glossariylar;
- Bilimni baholash uchun onlayn test va boshqa topshiriqlar;

Buyuk olim Xolmsbergning ta'riflashicha, masofaviy ta'lim tizimini uzluksiz ta'lim tizimiga qiyoslash mumkin. Bunda ham pedagogik jarayon bir xilda bo'lib asosiy maqsad yosh pedagoglarni bo'lajak kasb egasi qilib o'z sohalarida yetuk mutaxassis bo'lib yetishishlariga ko'maklashishdir. U o'z ichiga jarayon ishtirokchilarining ichki imkoniyatlarini harakatga keltiruvchi tushunchalarini mustaqil ravishda rivojlantirishga ko'maklashuvchi omil bo'lgan ta'lim, mustaqil ta'lim, tarbiya, o'zini – o'zi tarbiya va tarbiyaviy munosabatlar jarayonini tashkil

etish, boshqarish, sifat va samaradorlikni oshirishga katta hissa qo'shuvchi innovatsion yondashuvlarni joriy qilishdan iborat. Professor A.A. Bodalyovning fikricha, insonlar o'rtasidagi o'zaro ta'sir inson psixologiyasi va shaxsiy xususiyatlarini rivojlantirishning eng dolzarb omili bo'lib, ushbu jarayon ishtirokchilarining o'zaro teng harakatlari shaxslararo aloqalarning vujudga kelish sharti hisoblanadi.[1] Hozirgi Oliy o'quv yurtlarida uzluksiz ta'lim talabalar uchun tashkil etiladigan ma'ruza matnlari, amaliy mashg'ulotlar, seminarlar, to'garak mashg'ulotlari, ekskursiya, davra ochiq suhbat, uchrashuvlar, fanlar bo'yicha o'tkaziladigan turli xildagi musobaqalar va tanlovlar, san'at festivallari, konferensiyalar, ko'ngil ochar tadbirlar, ustoz – shogird tizimi, ochiq darslar va shular bilan bir qatorda bilim egalari tomonidan amalga oshiriladigan mustaqil ta'lim, o'zini – o'zi tarbiya, mustaqil ma'lumot to'plash, shaxslararo muloqotlarni uzluksiz ta'limdagi pedagogik jarayonlar deb atashimiz mumkin. Bulardan asosiy maqsad esa, yo'nalishi, mazmun- mohiyati va ahamiyatiga e'tibor qaratadigan bo'lsak ularning o'zaro aloqadorligi va bog'liqligini ya'ni ularda uzluksiz ta'lim tizimiga mos xususiyatlar mavjudligini ko'rishimiz mumkin. Soddadan murakkabga qarab davom etib kelayotgan bundan jarayonlarning birining o'zgarishi boshqasining o'zgarishiga ta'sir etmay qolmaydi, shu sabab har biri bilan alohida shug'ullanish va ketma- ketligini to'g'ri taqsimlash ham ustuvor vazifa hisoblanadi. Masofaviy ta'limni sifatli rivojlantirish uchun o'quv tarmog'i va amaliyot o'quv mutaxassisi quyidagi uslubiy materiallarni ishlab chiqadilar. Bular:

- O'rganuvchining kognitiv qiymatini taqsimlash, intizom va uning oliy ta'lim tizimidagi o'rni;
- Fanning maqsadlari va uning mazmunini belgilash;
- Fan mazmuniga munosiblikda dars ishlanmalari;
- O'qitish usullari, uslubiy vositalar, va o'qitishning tashkiliy shakllari. Ya'ni, zaruriy uslubiy yordam;

Masofaviy ta'limni asosiy ro'li o'qituvchilarni metodik tayyorlanishi va kasbiy faoliyatini doimiy ravishda o'zgartirib rivojlantirib turishlaridadir. Bunda misol uchun, ma'ruzalar butun bir o'qitish vaqtining kichik bir qisminigina tashkil qilishi va nafaqat o'qituvchilarni balki, o'quvchilarni ham o'quv jarayoniga ijodiy izlanishga yo'naltiradi. Bulardan tashqari talabalar zarur bilimlarni mustaqil ravishda o'zlari izlangan holda o'rganish qobiliyatlari va ularga ajratilgan ko'mak ham kiradi. Nazorat yondashuvi esa, joriy, yakuniy, trening bosqichlarini o'z ichiga oladi.

Elektron ta'lim o'qituvchilari universal bo'lishlari kerak. Ya'ni ular zamonaviy pedagog, axborot texnologiyalarini mustaqil qo'llay oladigan va ular haqida puxta bilim egallagan, psixologik jihatdan ham tayyor bo'lishi lozim. Bundan tashqari, talabalar bilan yangi o'quv – uslubiy yondashuv orqali ishlash va kognitiv tarzda dars olib borish muhitini tashkil etishi kerak. Yangi o'quv muhiti bo'lib esa, bilimdonlarning elektron munozara – muhokama forumlari, pochta almashinmalari, elektron ma'lumotlar bazasi va onlayn suhbatlar bo'lib xizmat qiladi. Bunda o'quvchilar o'zlarini ta'limning ajralmas qismi sifatida his qiladilar va bu ularning jamoaviy faolligini oshiradi va o'rganishlari uchun yuqori motivatsiya olishadi. O'qituvchilar kreativlik g'oyalar egasi bo'lishlari va bunday o'quv muhitini saqlab qolishlari, rivojlantirishlari, ijodkorlik strategiyalarini to'g'ri yo'naltirishlari o'z kasblarining mohir egalariidan ekanligigiga shubha qoldirmaydi va malakalarini oshirishda katta ko'maklarga ham ega bo'ladilar. Shu nuqtai nazardan, masofaviy o'qitishlar har ikkala tarafdin ustunlikka egaligi sabab muhim ahamiyatga ega. Kompyuter texnologiyalarini joriy etish ta'lim jarayonini

yanada chuqurroq tushunishga qaratilgan o'quv yuklamalarini tadbiiq etadi. Talabalar ko'radigan asosiy manfaat esa, kommunikativ (tog'ridan – tog'ri aloqa tarmoq vositalaridan foydalanish), axborot qidirish va uni tanqidiy tushunish imkoniyati, o'z – o'zini tarbiyalashdan iborat. Amaliyotlar shuni ko'rsatadiki, agar talaba mustaqil ravishda qaror qabul qilishni bilmasa, uning ta'lim faoliyati mazmunini aniqlay olmaydi yoki ma'lum bir fanni sifat jihatidan o'zlashtira olmaydi. Bundan tashqari, masofaviy o'qitish, qator ta'lim funksiyasini ham bajaradi:

- Shaxsning yetakchi sifatlarini rivojlantirishga yordam beradi;
- Faollik, mustaqillik va o'z ustida ishlash takomillashishni o'stiradi;
- Ijodkorlikni rag'batlantiradi;

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash joizki, O'quv kursini tashkil qilayotgan pedagog avvalambor, o'rganilayotgan sohasi va ta'lim yo'nalishiga bog'liq holda turli yondashuvlardan foydalanishi zarur. Masalan, texnikaviy ta'lim yo'nalishlari uchun amaliy mashg'ulotlar to'plami. Ulardan farqli ravishda filologiya sohasidagilar uchun turli xildagi interaktiv o'yinlar va qiziqarlik mashg'ulotlar ko'rinishida bo'lishi mumkin. Yangi pedagogik texnologiyalar bugungi zamonaviy ta'lim tizimida chuqur o'rin egallamoqda. Chunki, ta'limga texnologik yondashuv va didaktik uslubiy tadqiq qilish o'z samarasini bermoqda. Yurtimizda qabul qilingan "Ta'lim to'g'risida"gi Qonunda ham belgilanganidek, yuqori malakali mutaxassislarni tayyorlashda eng ilg'or ta'lim texnologiyalarini joriy qilish dolzarb vazifalardandir. Shu nuqtai nazardan masofaviy ta'lim jarayoni va uning didaktik – uslubiy ta'minot qilish orqali talabalarga yangi bilimlarni berish, ularni shu asnoda o'z mutaxassisliklariga tayyorlashga yondashish bugungi kunning ustuvor vazifalaridandir. Masofaviy ta'limni buyuk olim Xolmberg, uzluksiz ta'lim deb ta'riflaydi. Darhaqiqat, bunda o'qituvchi va talaba makon va zamonga nisbatan bir-biridan ajralib turadi va bu uning asosiy xususiyatlaridan biri hisoblanadi. Ushbu maqolada ham masofaviy o'qitishning ahamiyati afzalliklari bilan bir qatorda uning pedagogik, didaktik uslubiy ta'minoti haqida to'xtalinadi.

Umuman olganda, masofaviy ta'lim texnologiyalaridan foydalanish mustaqil o'qish ko'nikmalarini shakllantirishga samarali ta'sir qiladi va shu bilan birga kognitiv faollikni oshirib jarayonga ijodiy munosabatni har ikkala taraflama rag'batlantiradi. Bularning hammasiga vaqt tafovuti va to'sqinligi ustuvor bo'lgan erishilganligi sababli hozirgi kunda elektron tizimli ta'lim yuqori natijalarga erishishga sabab bo'lmoqda. U o'z ichida yangi ma'lumotlarning cheksizligi, erishilgan bilimlarni istalgan paytda amalda qo'llay olinishi va nazorat har taraflama yuqoriligi sabab ommalashmoqda. Eng asosiysi esa kelajak kasb egalari uchun professional o'sishda asos bo'lib ham xizmat qilinishidir.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. Бодалев А.А. О предмете жкмеодогмм// Психологический журнал. — М., 1993
2. Арипов М.М. va boshqalar. Informatika, informatsion texnologiyalar, 2- qism. Toshkent, "TDTU", 2003.403 b.
3. Azimov E.G. "Массовые открытые онлайн курсы в системе современного образования", 2014. 5b.
4. Masofaviy o'qitish nazariyasi va amaliyoti. Monografiya.A.A.Abdukadirov, A.X.Pardayev; o'zbekiston respublikasi fanlar akademiyasi "FAN" nashriyoti, 2009-145 b.
5. Mavlonova R. va boshqalar. Umumiy pedagogika. Darslik. "Navro'z" nashriyoti, 2016

6. Ziyomuhammadov B. Pedagogika. Oliy o'quv yurtlari uchun qo'llanma. "TuronIqbol" nashr, 2006
7. Ziyomuhammedov B. Tojiyev M. Pedagogik texnologiyalar o'zbek modeli. "Lider Press". Toshkent 2009
8. https://www.researchgate.net/publication/348916562_MASOFAVIY_TA%27LIM_TIZIMI?enrichId=rgreq-0697bde776e4b2fa7b69f859eb8dc1c9-XXX&enrichSource=Y292ZXJQYWdlOzM0ODkxNjU2MjtBUzo5ODU5MjA0ODQ0Mjk4MjRAMTYxMjA3MzE2OTIwOA%3D%3D&el=1_x_2&esc=publicationCoverPdf
9. <https://www.google.com/search?client=avast-a-1&q=wikipedia+uz&oq=wikipedia&aqs=avast.1.69i57j0l7.5694j0j1&ie=UTF-8>
10. <https://ziyouz.uz/kutubxona/>

SCIENCEPROBLEMS.UZ

ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ

№ S/5 (3)-2023

АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари электрон журнали 2020 йил 6 август куни 1368-сонли гувоҳнома билан давлат рўйхатига олинган.

Муассис: "SCIENCEPROBLEMS TEAM"
масъулияти чекланган жамияти

Таҳририят манзили:

100070. Тошкент шаҳри, Яккасарой тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-уй. Электрон манзил:

scienceproblems.uz@gmail.com

Боғланиш учун телефонлар:

(99) 602-09-84 (telegram).